

FUQAROLIK MADANIYATI – FUQAROLIK JAMIYATI QURISHNING MUHIM OMILI

Haydarov O.E

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti*

Annotatsiya: Maqolada yurtimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining xususiyatlari, fuqarolarda fuqarolik madaniyatini shakllantrishning zaruriyati, uni shakllantirish omillari, demokratiya va siyosiy - huquqiy madaniyatning aloqadorligi masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning alohida o'rni borligi, fuqarolarda ta'lim orqali fuqarolik madaniyatini rivojlantirish, fuqarolik madaniyatining fuqarolik jamiyati va demokratiya bilan bog'liqligi jarayonlari ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: fuqarolik madaniyati, fuqarolik jamiyati, fuqarolik pozitsiyasi, siyosiy ong, huquqiy ong, demokratiya, siyosiy-huquqiy madaniyat, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy faollik

Respublikada shakllanib tobora qaror topib borayotgan fuqarolik jamiyati uning tarkibiy qismi bo'lган ko'plab mlezonarni ham rivojlantirishni taqozo etadi. Fuqarolik jamiyatining ana shu mezonlaridan biri bu fuqarolarda fuqarolik madaniyatining shakllangan bo'lishi yoki uni shakllantirishdir. Jamiyatni boshqarishda fuqarolarning ishtiroki ulardan yuqori darajada fuqarolik madaniyati bo'lishni ham taqazo etadi. Fuqarolik madaniyati qancha yuqori bo'lsa, jamiyatda demokratik jarayonlar shuncha rivoj topib boradi. Shuning uchun demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat⁵¹ hamda fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston, fuqarolarning siyosiy ong va madaniyatini oshirishni ham ustuvor vazifa qilib qo'yadi. Respublikamizda yuksak ma'naviyatga, demokratik jamiyat qurilishining muhim omili sifatida qaraladi. Fuqarolar o'zlarida yuksak madaniyatni shakllantirib, demokratiya ishiga katta ma'suliyat bilan yondoshib, o'z erki va ozodliklariga yanada ma'suliyat bilan yondoshish zarurligini chuqurroq anglab yetmoqdalar.

Fuqarolik madaniyati fuqarolarda siyosiy va huquqiy ong va madaniyat yuqori darajada rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi siyosiy-huquqiy madaniyatning yuksakligiga bog'liq jarayondir. Bugungi kunda demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirishda aynan ana shu siyosiy-huquqiy madaniyatning demokratiya talablari darajasidan ozroq orqada qolayotganligi sabab bo'lmoqda. O'zbekistonning mustaqillik davrida siyosiy sohada erishgan yutuqlari asosan demokratiyani siyosiy va huquqiy asoslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'ldi. Endigi asosiy vazifa ana shu asoslarga tayangan holda demokratiya sharoitida yashashga qodir bo'lган avlodni tarbiyalashdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, bugungi kunda

⁵¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, T.- O'zbekiston, 2023

bizda demokratiyaning shakli o'rnatilgan bo'lib uning mazmuni endigina shakllanib bormoqda. Demokratiyaning mazmuni faqat tadrijiy tarzda amalga oshiriladigan ta'lif va tarbiya jarayonlari bilan bog'liq, chunki insonning dunyoqarshini o'zgartirish ma'lum bir vaqt ni talab qiladigan jarayondir.

Fuqarolik madaniyatini yuksaltirishda ta'lif beqiyos o'rinni tutadi. Bugungi kunda ham oldimizga qo'ygan asosiy maqsad - fuqarolik jamiyatini barpo etish va uni takomillashtirish uchun "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun va davlat dasturlarida ko'zda tutilgan bilimli, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlarni tarbiyalashga yanada muhim e'tibor qaratish va bu masalalar ta'lif islohotlarining bosh vazifasi deb qabul qilib, uni amalga oshirishdan iborat. "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun va davlat dasturlari asosida yaratilgan va amalga oshirilayotgan yangi ta'lif modeli aynan ana shu maqsadga erishish yo'lida o'zining yangicha ta'lif va tarbiyaviy jarayonini shakllantirib bormoqda. Shuni unutmaslik kerakki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonida bor. Bizda qadimdan "Ma'rifatli inson" tushunchasi ancha keng ma'noni anglatgan. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik - faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, kamolotli inson deganida aynan shunday odamlarni ko'z oldiga keltiradi. Shu tariqa O'zbekistonda bevosita o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan takrorlanmas, buyuk tariximiz, an'analarimizga asoslangan va shu bilan birga, hozirgi davr talablariga javob bera oladigan zamonaviy ta'lif berish dasturlari yaratilayapti va amalga oshirilayapti.

Mamlakatimizda amalga oshirilatotgan siyosiy islohotlar mohiyatini anglash, demokratiyaga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishda, saylov tizimini liberallashtirishda va nazorat tizimini takomillashtirishda siyosiy-huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki demokratiya jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligini taqozo etadi. Agar siyosiy-huquqiy madaniyat demokratiya talablari darajasidan orqada qolsa demokratiya oxlokratiyaga aylanib ketadi. Shuning uchun Aristotel o'zining "Siyosat" nomli asarida demokratiyaga salbiy baho berib demokratiya boshqaruvning yomon shakli deb uni oxlokratiyadan farqini ko'rmagan. Bugungi kunda ham agar siyosiy-huquqiy madaniyat past bo'lsa demokratiya oxlokratiyaga aylanib ketishi mumkin. Bu esa ijtimoiy tartibga putur yetishiga va har qanday jamiyat uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda jamiyatning siyosiy - huquqiy madaniyatini oshirish masalasi eng muhim va eng dolzarb muammo deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Siyosiy-huquqiy madaniyat fuqarolik pozitsiyasini shakllantirib fuqarolik jamiyatini kuchli qilishni ta'minlaydi. Siyosiy-huquqiy madaniyat va fuqarolik pozitsiyasini qisqa qilib ifodalaganda fuqarolik madaniyati deb aytish mumkin. Fuqarolik madaniyati fuqarolik jamiyatini shakllanishi va kuchli bo'lishini muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatini shakllanishi va rivojlanishi demokratiya sharoitida yashashga qodir bo'lgan odamlarni bo'lishini taqozo etadi. Fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari bir biriga bog'liq va bir birini taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda demokratiya bo'lishi uchun fuqarolik pozitsiyasi shakllangan bo'lishi va xuddi shunday fuqarolik pozitsiyasi bo'lishi demokratiyani mavjudligiga bog'liq. Demokratiya deganda hokimiyat xalq tomonidan shakllanishi va xalq tomonidan nazorat qilinishi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, demokratiya ikki jarayonda ya'ni birinchidan, hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishida, ikkinchidan, hokimiyat xalq tomonidan nazorat qilinishida namoyon bo'ladi. Xalq demokratik jarayonlarda ishtirok etishi uchun siyosiy va huquqiy madaniyati demokratiya talablari darajasida bo'lishi lozim. Agar jamiyatning siyosiy-huquqiy madaniyati demokratiya talabi darajasida bo'lmasa, fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammo bo'lib qoladi va demokratiya oxlokratiyaga aylanib ketishi mumkin. Demak, fuqarolik jamiyatini shakllanishi va rivojlanishing muhim sharti bu siyosiy va huquqiy madaniyatning demokratiya talablari darajasida bo'lishida ya'ni fuqarolik madaniyatidir.

Ma'lumki siyosiy – huquqiy madaniyat siyosiy-huquqiy ong va siyosiy-huquqiy jarayonlarda ishtirok etish tajribasidan tashkil topadi. Siyosiy-huquqiy ong ta'lim tizimida shakllanadigan bilimga asoslansa, siyosiy-huquqiy jarayonda ishtirok etish tajribasi tarbiya tizimida shakllanadigan ma'naviyatga asoslanadi. Siyosiy-huquqiy jarayonda ishtirok etish uchun odamda befarqlik kayfiyati jilovlangan bo'lib daxldorlik hissi shakllangan bo'lishi lozim. Biz yoshlarimizni oliv ta'lim tizimida olayotgan bilimlarini amalga tadbiq qilishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy tarbiya negizida shakllanadigan ma'naviyatlarini yuksaltirish masalalariga ham alohida e'tibor berishimiz kerak. Chunki yoshlarimizga berilayotgan bilimlar amaliyotda qo'llanilishi uchun ularda befarqlik kayfiyati jilovlanib daxldorlik hissi shakllangan bo'lishi lozim. Bugungi kunda ta'lim - tarbiya tizimida tarbiya ozroq orqada qolmoqda, shuning uchun bo'lsa kerak aholini ayrim qismida bo'lgani kabi yoshlarimizni ham ma'lum bir qismida befarqlik kayfiyati mavjud. Befarqlik bo'lgan joyda siyosiy - huquqiy ong madaniyat darajasiga ko'tarilmaydi va keraksiz bilimlar majmuiga aylanib qoladi. Bunday holat bo'lmasligi uchun ta'lim-tarbiyani uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlashga erishish lozim. Buning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada jonlantirish hamda bu borada davlat va jamiyat institutlarini ijtimoiy sherikligini yo'lga qo'yishimiz maqasadga muvofiq bo'ladi. Kuchli fuqarolik jamiyati kuchli siyosiy-huquqiy madaniyat va ma'naviyat asosida shakllanadigan daxldorlik hissi negizidagina shakllanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyatini kuchli qilishga bo'lgan ehtiyoj demokratiyaga bo'lgan ehtiyojga, demokratiyaga bo'lgan ehtiyoj esa saylovga va nazoratga bo'lgan ehtiyojga bog'liq. Saylov va nazorat jarayonida ishtirok etish ehtiyoji shakllanishi uchun odamning siyosiy-huquqiy madaniyati rivojlangan bo'lishi kerak. Siyosiy va huquqiy madaniyat odamda fuqarolik pozitsiyasini kuchli qilib, hayotga nisbatan daxldorlik hissini shakllantiradi. Ana shu siyosiy madaniyat, huquqiy

madaniyat va fuqarolik pozitsiyasini birgalikda uyg'unlashtirgan holda fuqarolik madaniyati deb ifodalash mumkin. Demak, siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat va fuqarolik pozitsiyasini ifodalaydigan fuqarolik madaniyati fuqarolik jamiyati va demokratiyaga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolik madaniyatining yaxshi shakllanganligi esa kuchli fuqarolik jamiyatini barpo qilishda muhim omil bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, T.- O'zbekiston, 2023

2.Набиев Ф.Х. Юксак маънавият ва етук сиёсий маданият. «Маҳалла», 2010 йил, 29 апрель.

3.Набиев Ф.Х. Демократия ва тартиб интизом қатъий назоратни талаб қиласиди. «Зарафшон». 2010 йил, 27 май.

4.Фуқаролик жамияти (дарслик лойиҳаси): 2016. Ziyonet.uz.

5.Haydarov, O. E., & Qoraboyev, S. M. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI MA'NAVIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 9-12.

6.Haydarov, O. E. (2023). JAMOATCHILIK NAZORATI TUSHUNCHASI TARIXIDAN. Научный Фокус, 1(7), 1173-1176.

7.Qoraboyev, S. M. (2022). JAMOATCHILIK TINGLOVI-JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLI SIFATIDA. 8.AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1174-1176.

9. HAYDAROV, O., & QORABOYEV, S. (2022). O 'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI.

10.Hamidovich, N. F., & Erkinovich, H. O. (2020). The Role Of "Honesty Vaccine" In AntiCorruption Prevention. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(07), 52-61.

11.Khatamov, O. K., & Ortikov, S. M. (2019). USE FROM THE INTERNATIONAL EXPERIENCES IN EMPLOYMENT THE POPULATION IN UZBEKISTAN. Theoretical & Applied Science, (11), 364-371.

12. Muhammadiyevich, O. S. (2023). Main problems of population employment and ways to solve them. American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750), 1(4), 10-13.

13.Ismatov, S. A., & Ortikov, S. M. (2020). The population bandhini tamines, turmus of regine oshirildi humiliation tagirova and using Uzbekistana characteristic.(foreign experience in providing employment, improving well-being and its specifics for uzbekistan). Theoretical & Applied Science, (11), 521-526.

14.Хатамов, О., & Ортиков, Ш. (2019). Аҳоли бандлигини таъминлаш моделлари ва ундан Ўзбекистон шароитида фойдаланиш имкониятлари. Экономика и

- инновационные технологии, (4), 48-59.
15. Xatamov, O. Q., & Ortikov, S. M. (2019). Models of employment of the population and opportunities for its use in the conditions of Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies, 2019(4), 8.
16. Mukhammadievich, O. S. (2023). Experiences in the study and analysis of population employment in foreign countries. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).
17. Ortikov, S. M. (2021). Experience in statistical study and analysis of employment in foreign countries. Thematics Journal of Business Management, 10(7).